XALQ DEPUTATLARI NORIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-yanvar VII-3-1-6-83-K/25 Norin tumani

Norin tumanidagi geografik ob’yektlarni nomlarini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5852-son farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Mamalakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020-yil 20-yanvardai 34-son qarori, O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo’mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2024-yil 7-fevraldagi 05-19-01-178-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o’tkazish bo’yicha ekspert komissiyasining yig’ilish bayoni” ijrosini taminlash maqsadida tuman komissiyasi bergan xulosasiga asosan tumandagi 2 ta Istirohat bog’ini tasdiqlash to’g’risidagi taklifini ko’rib chiqib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Norin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo’mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2024-yil 7-fevraldagi 05-19-01-178-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarini davlar ekspertizasidan o’tkazish bo’yicha ekspert komissiyasining yig’ilish bayoni” ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi istirohat bog’lari nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo’limi (Z.Imomov), tuman kadastr agentligi (A.Mirzaahmedov), tuman qurulish bo’limi boshlig’i (M.Tursunov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko’rsatilgan geografik ob’yektlarni belgilangan tartibda davlar ro’yxatidan o’tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish xujjatlariga o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (I.Rahmonov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NURMATOV JO‘RABEK XAMIDOVICH

Xalq deputatlari Norin tumani
Kengashining
2025-yil 13-yanvardagi
VII-3-1-6-83-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Geografik ob’ektning joylashgan o’rni	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	Istirohat bog’i	Nomsiz	O’zbekiston mahallasi	Nuroniy
2	Istirohat bog’i	Nomsiz	Katta Yaydoq mahallasi	Yoshlar